# O‘ZBEKISTONDA CHET EL HUQUQI MAZMUNINI ANIQLASHNING AMALDAGI HUQUQIY MEXANIZMI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

**Sultamuradova Sohiba G‘ayrat qizi**
Toshkent davlat yuridik universiteti
magistri
e-mail:sultamuradovasohiba@icloud.com

***Annotatsiya:*** *Mazkur tezisda O‘zbekistonda chet el huquqi mazmunini aniqlashning amaldagi huquqiy mexanizmi, uni qo‘llash jarayonida yuzaga keladigan muammolar hamda ushbu mexanizmni takomillashtirish istiqbollari tahlil qilinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1160-moddasida belgilangan qoidalar asosida chet el huquqining mazmunini aniqlashda sud va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vakolatlari, xorijiy huquqiy manbalardan foydalanish, ekspertlarni jalb qilish hamda vakolatli organlardan huquqiy axborot olish masalalari yoritiladi. Shuningdek, chet el huquqining mazmunini oqilona muddatda aniqlash bilan bog‘liq qiyinchiliklar va bunday holatlarda milliy huquqni qo‘llashning huquqiy oqibatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot yakunida huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, xalqaro huquqiy hamkorlikni rivojlantirish va chet el huquqi mazmunini aniqlashning samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *xalqaro xususiy huquq, chet el huquqi, chet el huquqi mazmunini aniqlash, kollizion normalar, sud, isbotlash majburiyati, ekspert xulosasi, xalqaro huquqiy hamkorlik, huquqiy axborot, Fuqarolik kodeksi.*

# ДЕЙСТВУЮЩИЙ ПРАВОВОЙ МЕХАНИЗМ УСТАНОВЛЕНИЯ СОДЕРЖАНИЯ ИНОСТРАННОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

***Аннотация.*** *В тезисе анализируются действующий правовой механизм*

*установления содержания иностранного права в Узбекистане, проблемы, возникающие при его применении, и перспективы его совершенствования. На основе положений статьи 1160 Гражданского кодекса Республики Узбекистан рассматриваются полномочия суда и лиц, участвующих в деле, вопросы использования иностранных правовых источников, привлечения экспертов и получения правовой информации от компетентных органов. Особое внимание уделяется трудностям, связанным с установлением содержания иностранного права в разумные сроки, а также правовым последствиям применения национального права в случаях, когда содержание иностранного права установить не удалось. По результатам исследования предлагаются меры по совершенствованию правоприменительной практики, развитию международного правового сотрудничества и повышению эффективности механизма установления содержания иностранного права.*

***Ключевые слова:*** *международное частное право, иностранное право, установление содержания иностранного права, коллизионные нормы, суд, бремя доказывания, заключение эксперта, международное правовое сотрудничество, правовая информация, Гражданский кодекс.*

## THE EXISTING LEGAL MECHANISM FOR ASCERTAINING THE CONTENT OF FOREIGN LAW IN UZBEKISTAN: CHALLENGES AND PROSPECTS FOR IMPROVEMENT

***Annotation.*** *This paper examines the existing legal mechanism for ascertaining the content of foreign law in Uzbekistan, the challenges arising in its application, and prospects for its improvement. With reference to Article 1160 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, the paper analyses the roles of courts and parties to proceedings, the use of foreign legal sources, the involvement of experts, and the provision of legal information by competent authorities. Particular attention is paid to difficulties in ascertaining the content of foreign law within a reasonable time and to*

*the legal consequences of applying domestic law when the content of foreign law cannot be established. The paper concludes by proposing measures to improve legal practice, strengthen international legal cooperation, and enhance the effectiveness of the mechanism for ascertaining the content of foreign law.*

***Keywords:*** *private international law, foreign law, ascertainment of foreign law, conflict-of-law rules, court, burden of proof, expert opinion, international legal cooperation, legal information, Civil Code.*

Zamonaviy fuqarolik-huquqiy munosabatlarning xalqaro tus olishi natijasida bir davlat hududidagi sud yoki boshqa vakolatli organ tomonidan xorijiy davlat huquqini qo‘llash zarurati tobora ortib bormoqda. Xorijiy huquqni qo‘llashning o‘zi kollizion normada tegishli huquq tizimining tanlanishi bilan yakunlanmaydi. Mazkur huquqning muayyan nizoga tatbiq etilishi uchun uning mazmuni, talqini va amaliy qo‘llanishini aniqlash alohida huquqiy vazifani yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 1160-moddasida chet el huquqi normalari mazmunini aniqlashning umumiy asoslari belgilangan1. Unga ko‘ra, sud yoki boshqa davlat organi xorijiy huquq mazmunini tegishli xorijiy davlatdagi rasmiy talqin, qo‘llash amaliyoti va doktrinaga muvofiq aniqlaydi. Shu bilan birga, sud vakolatli organlar va muassasalardan yordam olishi yoki ekspertlarni jalb qilishi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar esa xorijiy huquq mazmunini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi mumkin.

Biroq mazkur normaning umumiy xarakterga ega ekanligi chet el huquqi mazmunini aniqlashning protsessual mexanizmi bilan bog‘liq qator savollarni ochiq qoldiradi. Xususan, xorijiy huquqni aniqlashda foydalaniladigan manbalarning o‘zaro ustuvorligi, sud va taraflarning vazifalari, ekspert xulosasining huquqiy ahamiyati, “oqilona muddat” mezonlari hamda xorijiy huquq mazmunini aniqlashning yetarlilik darajasi alohida huquqiy aniqlikni talab qiladi.

1 O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi- https://lex.uz/docs/-180552

Chet el huquqi mazmunini aniqlash xalqaro xususiy huquqning eng muhim nazariy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda, avvalo, chet el huquqining sud tomonidan aniqlanishidagi huquqiy tabiatini belgilash masalasi yuzaga keladi. Ya'ni, chet el huquqi sud uchun huquqiy norma sifatida qaralishi kerakmi yoki uning mazmuni dalillar yordamida aniqlanishi lozim bo‘lgan fakt sifatida baholanishi kerakmi, degan masala turli huquqiy tizimlarda turlicha hal etiladi.

An'anaviy common law yondashuvida chet el huquqi uzoq vaqt davomida fakt sifatida ko‘rib kelingan. Xususan, ingliz huquqida sud mahalliy huquqdan farqli ravishda chet el huquqini o‘z tashabbusi bilan bilishi shart emasligi, unga tayanayotgan taraf esa uning mazmunini tegishli dalillar bilan isbotlashi kerakligi shakllangan. Bunday yondashuvda xorijiy huquqning mazmunini aniqlashda ekspert xulosalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlarda chet el huquqini oddiy fakt bilan tenglashtirishning nazariy jihatdan to‘liq emasligi ham qayd etiladi, u dalillar orqali aniqlansada, sud tomonidan qo‘llaniladigan huquqiy hodisa bo‘lib qoladi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, kontinental huquq tizimlarida chet el huquqi, odatda, huquq sifatida qaraladi va uning mazmunini aniqlashda sudning faol roli e'tirof etiladi. Bunday modelda sud faqat taraflar taqdim etgan materiallar bilan cheklanib qolmay, xorijiy huquqning rasmiy manbalari, sud amaliyoti, doktrina va boshqa ishonchli manbalarni mustaqil ravishda o‘rganishi mumkin. Zamonaviy qiyosiy-huquqiy tadqiqotlar ham ko‘plab davlatlarda sudning chet el huquqi mazmunini o‘z tashabbusi bilan aniqlashi ustuvor ekanligini ko‘rsatadi2.

Mazkur ikki nazariy yondashuvni mutlaq qarama-qarshi qo‘yish ham to‘g‘ri emas. Chunki amaliyotda chet el huquqi ko‘pincha "fakt sifatida aniqlanadigan, biroq huquq sifatida qo‘llaniladigan" o‘ziga xos huquqiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, sud xorijiy qonunchilik matni, sud qarorlari, ekspert xulosalari yoki

2 Johnson D.R., Post D. Law and Borders: The Rise of Law in Cyberspace. Stanford Law Review, 1996, vol. 48, no. 5, pp. 1367–402. JSTOR. DOI: 10.2307/1229390

taraflar taqdim etgan hujjatlardan foydalanishi mumkin, biroq yakunda qaysi xorijiy norma tegishli ekanini va uning muayyan nizoga qanday tatbiq etilishini sudning o‘zi huquqiy jihatdan belgilaydi 3 . Xalqaro fuqarolik protsessining ALI/UNIDROIT prinsiplarida ham sud xorijiy huquq bilan bog‘liq masalalarni aniqlash uchun taraflarning materiallari va ekspert yordamidan foydalanishi mumkinligi, biroq yakuniy huquqiy aniqlash sud zimmasida ekanligi ifodalangan4.

O‘zbekiston qonunchiligi mazkur masalada aralash, ya’ni sudning faol roli va taraflarning ko‘maklashishini uyg‘unlashtiruvchi modelni shakllantirgan. Fuqarolik kodeksining 1160-moddasiga muvofiq, sud yoki boshqa davlat organi chet el huquqi mazmunini tegishli xorijiy davlatdagi uning rasmiy talqini, qo‘llash amaliyoti va doktrinasi asosida aniqlaydi. Shu bilan birga, sud vakolatli milliy yoki xorijiy organlar va muassasalardan yordam hamda tushuntirish olishi yoki ekspertlarni jalb qilishi mumkin. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar esa o‘z talablari yoki e’tirozlariga asos bo‘layotgan chet el huquqi mazmunini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish va sudga ushbu huquqni aniqlashda ko‘maklashish huquqiga ega.

Shunday qilib, O‘zbekiston modelida chet el huquqini faqat dalil yoki faqat huquq sifatida baholashdan ko‘ra, uning ikki jihatini birgalikda hisobga olish maqsadga muvofiq. Chet el huquqining mazmuni daliliy manbalar, ekspert xulosalari va taraflar taqdim etgan hujjatlar orqali aniqlanishi mumkin, biroq ushbu materiallarga huquqiy baho berish va aniqlangan xorijiy normani nizoga tatbiq etish sudning vakolatiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro xususiy huquq sohasidagi qonunchiligida chet el huquqini qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlar Fuqarolik kodeksining VI bo‘limida tizimli ravishda tartibga solingan. Xususan, mazkur bo‘limning 70-bobida chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan

3 Ward, T., Plenderleith Ferguson, A. “Proof of Foreign Law: A Reduced Role for Expert Evidence?” Journal of Private International Law, 2024, Vol. 20, No. 1, pp. 95–116. DOI: 10.1080/17441048.2024.2347720

4 ALI/UNIDROIT Principles of Transnational Civil Procedure https://www.unidroit.org/

qo‘llaniladigan huquqni aniqlash, huquqiy baho berish, chet el huquqi normalari mazmunini aniqlash hamda boshqa davlat huquqiga havola etish bilan bog‘liq umumiy qoidalar mustahkamlangan. Ushbu normalarning o‘zaro izchil joylashtirilishi chet el huquqini qo‘llash jarayonining alohida bosqichlardan iboratligini ko‘rsatadi.

Avvalo, Fuqarolik kodeksining 1158-moddasi chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan qaysi huquq qo‘llanilishi lozimligini belgilashga qaratilgan. Mazkur bosqichda sud, eng avvalo, tegishli kollizion normani aniqlashi va uning asosida nizoga qaysi davlat huquqi tatbiq etilishini belgilashi lozim. Shu ma’noda, 1158-modda chet el huquqini qo‘llashning dastlabki ya’ni qo‘llaniladigan huquqni tanlash bosqichini ifodalaydi.

Keyingi bosqich Fuqarolik kodeksining 1159-moddasida nazarda tutilgan huquqiy baho berish bilan bog‘liq. Mazkur norma yuridik tushunchalarni kvalifikatsiya qilish masalasini tartibga soladi. Umumiy qoidaga ko‘ra, yuridik tushunchalarga huquqiy baho berishda O‘zbekiston Respublikasining huquqiga muvofiq sharhlash asos qilib olinadi. Agar tegishli yuridik tushuncha O‘zbekiston huquqiga noma’lum bo‘lsa yoki boshqa nom yoxud boshqa mazmunda mavjud bo‘lsa va uni O‘zbekiston huquqi asosida talqin qilishning imkoni bo‘lmasa, huquqiy baho berishda chet davlat huquqi ham qo‘llanishi mumkin.

Mazkur norma chet el huquqini aniqlashdan oldingi muhim metodologik masalani huquqiy kvalifikatsiyani hal qilishga xizmat qiladi. Chunki sud qaysi huquqiy munosabat yoki yuridik tushuncha haqida so‘z borayotganini to‘g‘ri belgilamasdan turib, unga nisbatan tegishli kollizion normani va natijada qo‘llanilishi lozim bo‘lgan xorijiy huquqni aniqlay olmaydi5.

Shundan keyingi va mazkur tadqiqot uchun bevosita markaziy ahamiyatga ega bosqich Fuqarolik kodeksining 1160-moddasi bilan tartibga solinadi. Ushbu modda

5 Rustambekov I. umumiy tahriri ostida. Xalqaro xususiy huquq: darslik. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Darslikning “Chet el huquqi mazmunining aniqlanishi” qismi. https://namdu.uz/pdf-viewer/media/Books/pdf/2024/06/05/NamDU-ARM-4005-Xalqaro_xususiy_huquq.pdf/

“Chet el huquqi normalari mazmunini aniqlash” deb nomlanib, chet el huquqini qo‘llashda sud yoki boshqa davlat organining vazifalarini belgilaydi. Unga ko‘ra, chet el huquqi normalarining mazmuni tegishli xorijiy davlatda ushbu normalarning rasmiy talqin etilishi, qo‘llanish amaliyoti va doktrinasiga muvofiq aniqlanadi.

1160-moddaning muhim jihati shundaki, qonun chiqaruvchi chet el huquqining mazmunini aniqlashni faqat sudning mustaqil faoliyati bilan cheklamaydi. Sud yoki boshqa davlat organi zarur hollarda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga, boshqa milliy vakolatli organ va muassasalarga, shuningdek chet eldagi tegishli organ va muassasalarga yordam yoki tushuntirish so‘rab murojaat qilishi yoxud ekspertlarni jalb qilishi mumkin. Bundan tashqari, ishda ishtirok etuvchi shaxslar o‘z talablari yoki e’tirozlarini asoslash uchun tayanayotgan chet el huquqi normalarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish hamda mazkur huquqning mazmunini aniqlashda sudga yoki boshqa davlat organiga ko‘maklashish huquqiga ega.

Shu bilan birga, 1160-moddaning so‘nggi qismi alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, qonunda nazarda tutilgan choralar ko‘rilganiga qaramay, chet el huquqi normalarining mazmuni oqilona muddatlarda aniqlanmasa, O‘zbekiston Respublikasining huquqi qo‘llaniladi. Mazkur qoida sud ishlarini cheksiz cho‘zilib ketishining oldini olishga qaratilgan bo‘lsada, undagi “oqilona muddat” tushunchasining aniq mezonlari belgilanmaganligi huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha yondashuvlar yuzaga kelishi ehtimolini keltirib chiqaradi. Shu sababli ushbu tushunchaning mazmunini ochib berish mazkur mexanizmni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 1161-moddasi esa qarshi tomon va uchinchi mamlakat huquqiga havola etish masalasini tartibga soladi. Mazkur norma chet el huquqiga havola qilingan vaziyatlarda kollizion bog‘lanishning boshqa huquq tizimiga olib kelishi mumkinligini nazarda tutadi. Shu jihatdan, 1161-modda chet el huquqini

aniqlash jarayonining keyingi murakkabligini qo‘llanilishi lozim bo‘lgan huquqning o‘zi boshqa davlat huquqiga havola qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Demak, chet el huquqi mazmunini aniqlash kollizion normani tanlash bilan aynan bir xil jarayon emas. Aksincha, u qo‘llanilishi lozim bo‘lgan huquq aniqlangandan keyin amalga oshiriladigan mustaqil huquqiy bosqich sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu bosqichda xorijiy huquqning tegishli normasi, uning amaldagi tahriri, rasmiy talqini, sud amaliyotidagi qo‘llanilishi va doktrinal mazmuni aniqlanishi lozim.

Shu bilan birga, amaldagi tartibning umumiy xarakteri bir qator savollarni ochiq qoldirmoqda. Xususan, sud qaysi manbalarni ustuvor ravishda qo‘llashi, taraflar taqdim etgan xorijiy huquq to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ishonchliligini qanday baholashi, ekspert qaysi hollarda majburiy yoki maqsadga muvofiq tarzda jalb qilinishi hamda “oqilona muddat”ni belgilashda qanday mezonlardan foydalanilishi masalalari yanada aniq protsessual tartibga solishni talab qiladi.

Shu sababli O‘zbekiston qonunchiligida chet el huquqi mazmunini aniqlash mexanizmini takomillashtirish faqat 1160-moddani alohida o‘zgartirish bilan cheklanmasdan, 1158–1161-moddalar o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni, shuningdek moddiy va protsessual normalarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash nuqtayi nazaridan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Chet el huquqi mazmunini aniqlash mexanizmlari turli huquqiy tizimlarda bir xil tartibda shakllanmagan. Mazkur sohada, ayniqsa, sudning roli, taraflarning ishtiroki, ekspert xulosalaridan foydalanish hamda xorijiy huquq mazmuni aniqlanmagan taqdirda qo‘llaniladigan huquqiy oqibatlar bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud.

Angliya huquqiy tizimida chet el huquqini aniqlash tarixan mahalliy huquqdan farqli yondashuv asosida shakllangan. Fuqarolik ishlarida chet el huquqiga oid masalalarni asoslashda ekspert dalillari muhim o‘rin egallaydi. Xususan, 1972-yildagi Civil Evidence Actning 4-moddasi tegishli bilim yoki tajribaga ega bo‘lgan shaxsning

chet el huquqi bo‘yicha ekspert dalillarini taqdim etishi mumkinligini nazarda tutadi6. Shuningdek, ayrim hollarda avvalgi sud ishlarida xorijiy huquq masalasi bo‘yicha chiqarilgan va tegishli shaklda qayd etilgan xulosa yoki qarorlar ham chet el huquqini aniqlash uchun dalil sifatida qo‘llanishi mumkin.

Mazkur modelning o‘ziga xos jihati shundaki, chet el huquqining mazmunini aniqlash jarayonida taraflarning protsessual faoliyati va ular taqdim etadigan huquqiy materiallar muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada ekspert xulosasi, xorijiy qonunchilik matnlari va sud amaliyoti kabi manbalar sudga xorijiy huquqning tegishli mazmunini aniqlashda yordam beradi.

Bunday yondashuvning O‘zbekiston uchun ahamiyati, avvalo, chet el huquqining mazmunini aniqlashda malakali ekspertlardan foydalanish mexanizmini aniq protsessual mezonlar bilan mustahkamlash zarurati bilan bog‘liq. Biroq Angliya modelini to‘liq ko‘chirish maqsadga muvofiq emas, chunki O‘zbekistonning kontinental huquq an’analariga xos bo‘lgan sudning faol roli saqlanib qolishi lozim.

Germaniya huquqida chet el huquqini aniqlash masalasi Fuqarolik protsessual kodeksining 293-moddasida tartibga solingan. Unga ko‘ra, boshqa davlatda amal qiladigan huquq, odat huquqi va ustavlar sudga noma’lum bo‘lgan darajada aniqlanishi lozim. Bunda sud faqat taraflar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar bilan cheklanmaydi, balki boshqa axborot manbalaridan foydalanish va zarur choralarni ko‘rish vakolatiga ega7.

Mazkur qoida sudga chet el huquqining mazmunini aniqlashda nisbatan faol pozitsiyani egallash imkonini beradi. Ya’ni, xorijiy huquqni aniqlash faqat taraflarning tashabbusiga bog‘lab qo‘yilmaydi. Sud tegishli huquqiy manbalarni mustaqil ravishda izlash, ulardan foydalanish va zarur hollarda qo‘shimcha ma’lumot olish choralarini ko‘rishi mumkin.

6 Civil Evidence Act 1972- https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1972/30/contents

7 Code of Civil Procedure- https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_zpo/englisch_zpo.html

Germaniya tajribasining yana bir muhim jihati shundan iboratki, sudning xorijiy huquqni aniqlash faoliyati manbalar bilan cheklanmagan. Bu yondashuv sudga konkret ishning xususiyatlaridan kelib chiqib, eng ishonchli va tegishli manbalardan foydalanish imkonini beradi.

O‘zbekiston qonunchiligi uchun ushbu tajribaning ahamiyati shundaki, FKning 1160-moddasida sudga berilgan vakolatlarni yanada aniq protsessual mexanizm bilan ta’minlash mumkin. Xususan, sud xorijiy huquq mazmunini aniqlashda faqat taraflar taqdim etgan hujjatlarga tayanib qolmasligi, balki rasmiy xorijiy huquqiy ma’lumotlar, sud amaliyoti, vakolatli organlarning ma’lumotlari va ekspert xulosalaridan foydalanishi mumkinligi aniq belgilanishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston uchun xorijiy modellarni to‘liq ko‘chirishdan ko‘ra, ularning muayyan funksional elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Birinchidan, sudning chet el huquqini aniqlashdagi faol roli saqlanishi kerak. Ikkinchidan, taraflarning xorijiy huquq mazmunini aniqlashda ko‘maklashish majburiyati va huquqining chegaralari aniq belgilanishi lozim. Uchinchidan, ekspert xulosasi va boshqa maxsus manbalardan foydalanishning protsessual tartibi takomillashtirilishi zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Johnson D.R., Post D. Law and Borders: The Rise of Law in Cyberspace. Stanford Law Review, 1996, vol. 48, no. 5, pp. 1367–402. JSTOR. DOI: 10.2307/1229390
2. ALI/UNIDROIT Principles of Transnational Civil Procedurehttps://www.unidroit.org/
3. Civil Evidence Acthttps://www.legislation.gov.uk/ukpga/1972/30/contents
4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi-https://lex.uz/docs/-180552
5. Code of Civil Procedure-https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_zpo/englisch_zpo.html

6. Rustambekov I. umumiy tahriri ostida. Xalqaro xususiy huquq: darslik. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Darslikning “Chet el huquqi mazmunining aniqlanishi” qismi.https://namdu.uz/pdf-viewer/media/Books/pdf/2024/06/05/NamDU-ARM-4005-Xalqaro_xususiy_huquq.pdf/
7. Ward, T., Plenderleith Ferguson, A. “Proof of Foreign Law: A Reduced Role for Expert Evidence?” Journal of Private International Law, 2024, Vol. 20, No. 1, pp. 95–116. DOI:10.1080/17441048.2024.2347720